



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2021- YILNING  
YANVAR-NOYABR OYLARIDA

## Dastlabki ma'lumotlar


2021-yil yanvar-noyabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi**

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari**



**Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari**

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir..

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 841,7** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 288,7** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,6 %** ni tashkil etdi.


## Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Info

**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan, tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni almashtirishga yordamlashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning noyabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **139,5** mlrd. so'mga o'sdi va **580,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **87,2** mlrd. so'mga pasaygan va **461,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning oktabr oyiga nisbatan joriy yilning noyabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi **30,4** mlrd. so'mga kamaydi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning oktabr oyiga nisbatan 2020- yil noyabr oyida xizmatlar hajmi **58,3** mlrd. so'mga kamaydi.

## Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-noyabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5 841,7</b>	<b>118,6</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	261,4	116,5
Moliyaviy xizmatlar	1 418,9	126,6
Transport xizmatlari	988,2	119,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	973,0	119,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	146,5	109,4
Savdo xizmatlari	1 839,7	112,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	124,6	111,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	273,8	120,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	105,2	137,5
Ijara xizmatlari	126,5	115,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	148,4	118,0
Shaxsiy xizmatlar	163,1	112,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	79,4	116,8
Boshqa xizmatlar	166,0	124,2

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-noyabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,5 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy (**24,3 %**), transport xizmatlari (**16,9 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (**4,7 %**) bo'yicha qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,4 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **32,0 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,3 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-noyabr oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash xizmatlarda (**37,5 %**), moliyaviy (**26,6%**), boshqa xizmatlar (**24,2%**), ta'lim sohasidagi (**20,9 %**), transport xizmatlarida (**19,2 %**), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (**18,0%**) hamda, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida (**16,8%**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlarda (**9,4 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **127,8** %. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **26,2** %.






Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

### Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-noyabr

2021- y. yanvar-noyabr



Yo'lovchi tashish



Yuk tashish


2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **55,9%** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **56,1%** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr


## Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida hududlarning ulushi, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



- Sharof Rashidov
- Jizzax sh.
- Zomin
- Baxmal
- G'allaorol
- Zarbdor
- Paxtakor
- Do'stlik
- Forish
- Zafarobod
- Mirzacho'l
- Yangiobod
- Arnasoy

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **973,0** mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **19,2** % ga oshdi.

### Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Jizzax shahrida (**25,1%**), Sharof Rashidov (**21,5 %**), Do'stlik (**21,3 %**), Paxtakor (**20,3 %**) va Zomin (**18,2 %**) tumanlarida, erishildi. Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining sur'ati Arnasoy tumanda (**73,0%**) kamaydi.




**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


2021- yilning yanvar-noyabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,5 %** ni tashkil etib, bu **1 839,7** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 457,2** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,0 %** iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari



### Hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mln. so'mda (2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



2021- yil yanvar-noyabr oylarida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida qayd etilgan – **416,4** mln. so'm.

Shu bilan birga, hududlar orasida G'allaorol (**253,9** mln. so'm), Zomin (**214,3** mln. so'm), Sharof Rashidov (**188,2** mln. so'm), Baxmal (**169,4** mln. so'm), Forish (**126,0** mln. so'm), Zarbdor (**95,1** mln. so'm) va Do'stlik (**90,6** mln. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **80,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **12,6 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**6,7 %**) tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-noyabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo ulushi **80,0 %** ga yetdi.



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

2021- yil yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 418,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ularning hajmi **1 106,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **24,3** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar- noyabr oylarida ularning ulushi **24,3** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **312,9** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ularning o'sish sur'ati **127,8** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar

## 2021- yil yanvar-noyabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **95,1 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-noyabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,7 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **1,2 %** ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **0,8 %**.





Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari





2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **273,8** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,7 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,9 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Sharof Rashidov (**7 725,9** mln. so'm), Zomin (**6 310,3** mln. so'm), Do'stlik (**5 602,8** mln. so'm), G'allaorol (**5 000,3** mln. so'm) va Zarbdor (**3 554,5** mln. so'm) tumanlari, shuningdek, Jizzax shahrida (**230 399,7** mln. so'm) qayd etildi.

## Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mln. so'm (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



### Taqqoslash

**uchun:** 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida Jizzax shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **180 078,9** mln. so'mga teng bo'lgan.

# Jizzax viloyati statistika boshqarmasi




Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish Do'stlik (**201,4 %**), Yangiobod (**23,1 %**), Zafarobod (**19,4 %**), Zarbdor (**17,7 %**), Sharof Rashidov (**17,0 %**) tumanlarida, shuningdek, Jizzax shahrida (**20,8 %**) kuzatildi.

Mazkur xizmat turidagi o'sish sur'atlarining biroz oshishi Arnasoy (**110,5 %**) tumanlarida qayd etildi.

## Hududlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr




**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.  
Yanvar-noyabr

2021- y.  
Yanvar-noyabr



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm


Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da

O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021- yilning yanvar-noyabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Zomin viloyatida **97,7** % ni tashkil etdi. Nisbatan Mirzacho'l tumanida keskin pasayish sur'ati kuzatildi – **39,8** %.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

Info

**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **31,1** mlrd. so'mga ko'paydi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2020- y.  
yanvar-  
noyabr

Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2021- y.  
yanvar-  
noyabr



2021- yil yanvar-noyabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,0** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-noyabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **92,3** % ni tashkil etgan.



# Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



*Dastlabki ma'lumotlar*


*2021- yil yanvar-noyabr*

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>5841,7</b>	<b>118,6</b>	<b>103,6</b>
<b>Jizzax shahri</b>	<b>2345,2</b>	<b>120,5</b>	<b>107,3</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Arnasoy</b>	<b>135,4</b>	<b>113,3</b>	<b>99,7</b>
<b>Baxmal</b>	<b>358,8</b>	<b>117,0</b>	<b>96,7</b>
<b>G'allaorol</b>	<b>478,6</b>	<b>118,8</b>	<b>100,6</b>
<b>Sharof Rashidov</b>	<b>752,6</b>	<b>119,2</b>	<b>108,2</b>
<b>Do'stlik</b>	<b>213,8</b>	<b>117,3</b>	<b>101,6</b>
<b>Zomin</b>	<b>511,0</b>	<b>121,5</b>	<b>96,4</b>
<b>Zarbdor</b>	<b>231,6</b>	<b>114,7</b>	<b>96,8</b>
<b>Zafarobod</b>	<b>131,2</b>	<b>114,9</b>	<b>96,3</b>
<b>Mirzacho'l</b>	<b>164,7</b>	<b>110,7</b>	<b>97,9</b>
<b>Paxtakor</b>	<b>213,2</b>	<b>115,3</b>	<b>99,9</b>
<b>Forish</b>	<b>238,6</b>	<b>113,5</b>	<b>92,2</b>
<b>Yangiobod</b>	<b>67,0</b>	<b>115,9</b>	<b>95,7</b>

Info

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021- yil yanvar-noyabr oylarida)



Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod tumanida – **1,1 %** (2020- yilning yanvar-noyabr oylarida – **1,2 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

4 106,1  
ming so'm

836,6  
ming so'mga



116,1 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 106,1** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **116,1 %** ni tashkil etdi.

### **Taqqoslash uchun:**

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 269,5** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,4 %** da qayd etilgan.



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

### 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

12 944 birlik.



1 113 birlikka o'sgan.

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

109,4 %



58,0 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi




## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-noyabr

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **58,0** qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,8** %, sanoat ulushi **16,2** % ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,0** % ga to'g'ri keldi.

### 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **57,1%** ni, sanoat **16,6** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,5** % ni, qurilish **9,8** % ni tashkil etgan.

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2021- yil yanvar-noyabr**

**2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**42,8 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,7%** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.


Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0 %** ga teng bo'ldi.





Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



62,4 %

2021- yil yanvar-noyabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 62,4 % ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 75,6 % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 72-221-51-27

